

ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA XRONOLOGIYAGA OID MA'LUMOTLAR

¹Boboxonov Lochinbek Yunusali o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: officialbobokhonov@gmail.com,

²Yangiboyev Abdulaziz O'tkir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: yangiboyevabdulaziz53@gmail.com,

³Mirzayev Jonibek Otabek o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: jonibekmirzayev19@gmail.com,

⁴Ergashev Davron Sultonmurod o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

E-mail: ergashevdavronbek179@gmail.com.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7377003>

Annotatsiya: Quyidagi maqolada Abu Rayhon Beruniyning asarlarida keltirilgan xronologik ma'lumotlar, ulardagi hisoblash sistemasi, oylarning nomi va asarlarning bugungi kundagi ahamiyati qanchalik yuqori ekanligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Qonuni Ma'sudiy", "Hindiston", turkiy taqvim, xorazm va sug'd taqvimi, Yuliy Sezar, kabisa yili, rumiy taqvim, misr va shom kalendari, qadimgi va zamonaviy arab taqvimi.

O'rta asrlar xronologiyasiga doir qimmatli ma'lumotlarni bizgacha yetkazishda muhim o'rin tutgan olimlardan biri bu Abu Rayhon Beruniydir. Abu Rayhon Beruniy o'rta asrlarning eng buyuk olimlaridan biridir. Beruniy o'z zamonasining hamma fanlarini egallagan buyuk ensiklopedist edi.

Beruniy o'z davrida amalda bo'lgan ko'plab taqvimlar haqida o'z asarlarida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Ana shunday asarlardan biri "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari hisoblanadi. Asarda O'rta Osiyo xalqlari, xorazmliklar, so'g'dliklar, yahudiy, yunon va boshqa xalqlarning yil hisoblari, hayitlari, mashhur kunlari, ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayotining tarixi, urf-odat va boshqa ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarining uch joyida turkiy xalqlar taqvimi haqida eslatib o'tadi. Asarning 103-sahifasida qator sharq xalqlari taqvimlari haqida gapirib, turk va hazarlarni ham tilga oladi: "Hind, Xitoy, Tibet, Turk, Xazar, Xabash va Zangi kabi boshqa millatlarning oylariga kelsak, garchi ulardan ba'zisining nomlari bizga aniq ma'lum bo'lsa ham, to ularning barchasini bilish vaqti kelgungacha bayon etishdan to'xtadik".

Ikkinchi marta asarning 104-sahifasida quyidagilarni yozadi: "Bular (ya'ni turkiy xalqlar taqvimi) miqdor va ma'nolari, kayfiyatlaridan voqif bo'lmadim".

Shundan keyin olim turkiy xalqlar taqvimidagi o'n ikki oy nomlarini sanab o'tadi:

- | | |
|------------------|---------------------|
| 1. Ulug' oy | 7. Beshinchi oy |
| 2. Kichik oy | 8. Oltinchi oy |
| 3. Birinchi oy | 9. Yettinchi oy |
| 4. Ikkinchi Oy | 10. Sakkizichi oy |
| 5. Uchinchi oy | 11. To'qqizinchi oy |
| 6. To'rtinchi oy | 12. O'ninchi oy |

Beruniy ushbu sahifada yana turk taqvimi haqida gapirib, "Turk jadvali" degan sarlavha ostida o'n ikki hayvon nomi bilan ataladigan 12 yillik muchal hisobining nomlarini ham qayd etgan:

- | | |
|----------------------|--------------------|
| 1. Sichqon | 7. Yunt (ot) |
| 2. Ud (sigir) | 8. Qo'y |
| 3. Bars | 9. Pichin (maymun) |
| 4. Tovushqon (quyon) | 10. Tovuq |
| 5. Luy (baliq) | 11. It |
| 6. Yilon (ilon) | 12. To'ng'iz |

Yuqoridagilardan ma'lumki, turkiy xalqlarning asosiy taqvimi muchal hisobidan iborat bo'lgan yilning 12 oyi Beruniy keltirgan nomlar bilan atalgan. Biroq Beruniy turkiy xalqlarda qadim zamonlardan buyon biror voqea asos qilib olingan "Tarix boshi" deb atalgan, raqam bilan hisoblab kelinadigan yil hisobi haqida ma'lumot bermaydi.

Beruniy asarlarida ma'lumotlar uchraydigan yana bir qadimgi taqvimlardan biri bu Xorazm taqvimidir. Xorazm taqvimi – qadimgi Xorazmda yashagan xorazmiylarning quyosh taqvimiga asoslangan yil hisobi bo'lib, Abu Rayhon Beruniyning xabar berishicha Xorazm yil hisobi O'rta Osiyoda qo'llanilgan eng qadimgi taqvim hisoblanadi. Bu taqvim Beruniyning ko'rsatishicha Iskandar Zulqarnayndan 980 yil avval boshlangan bo'lib, bu sana taxminan miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Beruniy ijod etgan davrda esa Xorazm yil hisobi ikki ming yildan oshib ketgan edi.

Abu Rayhon Beruniy "Movarounnahr otashparastlari, ya'ni Xorazm va Sug'd aholisi ishlatadigan oylar" ni bayon etadi. Movarounnahrliklarning kalendaridagi oylarning soni va yilning uzunligiga ko'ra eronliklar kalendariga o'xshashi, faqat oylarning boshlanishi orasida farq borligini aytib o'tadi. Abu Rayhon Beruniy xorazmliklar kalendaridagi oylar va kunlarning nomlarini ham keltirib o'tadi. Xorazmliklar "isfandorajiy" (o'n ikkinchi) oyning oxiriga qo'shiladigan ortiqcha besh kunning birinchisini oyning birinchi kuni nomi bilan atab, qolgan kunlarga

ham birin-ketin keying kunlarning nomlarini berishlarini aniqlaganini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy Misr kalendarlariga ham to'xtalib o'tgan. U Misr kalendaridagi eski va yangi oy nomlarini o'z asarida berib o'tadi. Misrlilar qo'shimcha besh kunni "abag'amno" (kichik oy), kabisali yilni esa "anqnaqt" (alomat) deb ataganlar. Qo'shimcha kun so'nggi "musriy" oyining oxiriga qo'shilgan. Abu Rayhon Beruniy "Shom mamlakatlari" kalendaridagi o'n ikki oy nomlari va to'rt yilda bir marta beshinch (shubat) oyga bir kun qo'shib hisoblanishi haqida yozadi. Bu manbaga ko'ra "Shom mamlakatlari" kalendaridagi oy nomlari keng tarqalgan, hatto arablar ham "dala ishlariga tegishli vaqtlarni" shu oylar bilan belgilar ekan.

Abu Rayhon Beruniy "Qonuni Ma'sudiy" asarida qadimgi arab kalendaridagi o'n ikkita oy nomini keltiradi, lekin ulardan faqat ikkitasining lug'aviy ma'nosini berib o'tadi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" da zamonaviy arab kalendaridagi o'n ikkita oy va yetti hafta kunining nomi va ta'riflarini ham keltiradi. Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo'shimcha oy qo'shishni o'rganganlar va bu oyni "ayyom an-nasi" deb ataganlar. Beruniy ushbu asarida milodiy yil hisobiga ham to'xtalib o'tadi. U mazkur kalendarni "rumiy kalendari" deb ataydi va bu kalendarga birinchi marta kabisa yilini Yuliy Sezar kiritgan, deb yozadi.

"QonuninMa'sudiy" asarining ikkinchi kitobi xronologiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ko'rilgan masalalar to'ldirilib, davom ettiriladi. Beruniyning "Hindiston" asarida bu o'lkada yashovchi xalqlarning urf-odatlarini, geografiyasi va u bilan bog'liq astronomiyasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, olim burjlar, oy fazalarining o'zgarishi, hind eralari, oy va quyosh kalendarlariva oltmish yillik Yupiter davriyligi nomlarini keltirib o'tgan.

Arab sayyohi va geografi Yoqut al-Hamaviy (XIII asr) Beruniy haqida: "Zamona ilm va aqlda unga teng keladigan boshqa odamni ko'rmadi" – deb yozgan bo'lsa, nemis olimi E.Zaxau esa " U arab adabiyoti okeanida yagona qoyadir" – deb bejiz yuqori baho bermagan edi. Darhaqiqat qomusshunos olim "Hindiston" asarini yozib insoniyatning buyuk mutafakkirlaridan biriga aylandi.

Shu o'rinda Abu rayhon Beruniyning buyuk xizmatlari bashariyat tomonidan e'tirof etilsada, Xronologiya fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, kalendarlar tarixi bo'yicha yozib qoldirgan ma'lumotlari dunyo tarixchi olimlarining Xronologiya faniga oid o'quv qo'llanmalari, manbalarida qayd etilmagani kishini taajjubga solidi. Vaholanki Beruniybrus akademigi I.Yu.Krachkovskiy

ta'kidlaganidek musulmon olimlari ichida birinchi marta yahudiylar kalendari haqida sistemali ma'lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Abu Rayhon Beruniy – “Tanlangan asarlar”. T.:1968
- 2.Zumrad Raxmonqulova – Xronologiya. T.:2013
- 3.Abduvali Do'stov – Xronologiya va Metrologiya. T.:2016
- 4.M.Hakimov – Turkiston xalqlari qo'llagan taqvimlar. T.:1999